

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2026-yil 2-son

VOLUME 10 / ISSUE 2 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2)

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS)



Crossref
Content
Registration

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Mustafayev, Y. Yarmolik, M. Sharifova, Sh. Beknazarova, X. Yuldasheva, E. Sharipov

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2026-yil 25-iyunda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog'i: 22

Adadi: 100. Buyurtma: № 71.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

100047. Toshkent shahri,

Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS'UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot markazi direktori

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

Y. Kanyazov – Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori, yuridik fanlar nomzodi

J. Tashkulov – Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

U. To'xtasheva – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

M. Yasan – Balikesir universiteti Huquq fakulteti professori (Turkiya)

S. Ma'mun – Islam Negeri universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

Sh. Asadov – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

I. Ergashev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi sho'basini professori, yuridik fanlar doktori

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi sho'basini professori, yuridik fanlar doktori

M. Aminjonova – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. Raximov – Toshkent davlat yuridik universiteti Tadqiqot markazi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

I. Djurayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho'basini mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi sho'basini professori, yuridik fanlar doktori

F. Maxmudov – Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Kadirova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho'basini professor v.b., yuridik fanlar doktori

I. Yakubova – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi sho'basini professor v.b., yuridik fanlar doktori

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari sho'basini professori, yuridik fanlar doktori

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti sho'basini professori, pedagogika fanlari nomzodi

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Э. Мустафаев, Е. Ярмолик, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова, Х. Юлдашева, Э. Шарипов

Корректор:
М. Турсунов

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz
E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Издательская лицензия
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
25.06.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 22 Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 71.

Лицензия типографии
от 29.11.2023 № 174626.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – ректор Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

З. Эсанова – проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – директор Редакционно-издательского центра Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Е. Канъязов – директор Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции, кандидат юридических наук

Ж. Ташкулов – заведующий отделом Института государства и права Академии наук, доктор юридических наук, профессор

У. Тухташева – заместитель директора Агентства по противодействию коррупции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

М. Ясан – профессор юридического факультета Университета Балыкесир (Турция)

С. Маъмур – преподаватель Исламского государственного университета (Индонезия)

Ш. Асадов – начальник управления юридического образования и судебной экспертизы Министерства юстиции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

И. Эргашев – профессор сектора административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Ж. Нематов – профессор сектора административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

М. Аминжонов – доцент кафедры организации контроля за исполнением законодательства Правоохранительной академии Республики Узбекистан, доктор юридических наук

М. Рахимов – начальник Центра исследований Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

И. Джураев – заведующий сектором судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

О. Нарзуллаев – профессор сектора экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Ф. Махмудов – заместитель директора Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции, доктор юридических наук, доцент

М. Кадирова – и.о. профессора сектора уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

И. Якубова – и.о. профессора сектора права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Мухамеджанов – профессор сектора международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Н. Ниязова – профессор сектора узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, кандидат педагогических наук

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Mustafaev, E. Yarmolik, M. Sharifova, Sh. Beknazarova, Kh. Yuldasheva, E. Sharipov

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 25.06.2026.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 22.

Units: 100. Order: № 71.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD
EDITOR-IN-CHIEF

B. Khodjaev – Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Director of the Publishing and Editorial Center of Tashkent State University of Law

MEMBERS OF EDITORIAL BOARD

Y. Kanyazov – Director of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice, Candidate of Legal Sciences

J. Tashkulov – Head of the Department of the Institute of State and Law of the Academy of Sciences, Doctor of Law, Professor

U. Tukhtasheva – Deputy Director of the Anti-Corruption Agency, Doctor of Law, Professor

M. Yasan – Professor of the Faculty of Law, Balikesir University (Turkey)

S. Ma'mun – Lecturer at Universitas Islam Negeri (Indonesia)

Sh. Asadov – Head of the Department of Legal Education and Forensic Examination of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

I. Ergashev – Professor of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

J. Nematov – Professor of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

M. Aminjonova – Associate Professor of the Department of Organization of Control over the Execution of Legislation of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

M. Rakhimov – Head of the Research Center of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

I. Djuraev – Head of the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

O. Narzullaev – Professor of the Department of Environmental Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

F. Makhmudov – Deputy Director of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice, Doctor of Law, Associate Professor

M. Kadirova – Acting Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

I. Yakubova – Acting Professor of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Mukhamedjanov – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

N. Niyazova – Professor of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

11 ESHTURDIYEVA FARANGIZ BAXODIR QIZI

Neyrohuquqlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish: sun'iy intellekt davrida O'zbekiston huquq ijodkorligi siyosatining ustuvor yo'nalishlari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

23 XUJANAZAROV AZIZJON ANVAROVICH

Raqamlashtirish davrida norma ijodkorligining zamonaviy tendensiyalari tahlili

34 ALIYEV ILHOMJON MUROD O'G'LI

O'zbekistonda sun'iy intellekt va raqamli o'zgarish: "aqlli millat"ni shakllantirishning huquqiy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

43 BURXANOVA LEYLA MARIUSOVNA

2026-yil – "Mahallani rivojlantirish va jamiyat farovonligini oshirish yili" ustuvorliklari kontekstida nikoh tuzishning huquqiy asoslarini takomillashtirish

58 KORYOG'DIYEV BOBUR UMIDJON O'G'LI, UMARALIYEV ISMOILJON IBROHIMJON O'G'LI, RAMIDDINOV BURXONIDDIN JALOLIDDINOVICH

O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarning huquqiy rejimi: O'zbekiston qonunchiligidagi muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

67 XUDOYNABAYEV DADAXON AVAZ O'G'LI

Sud chaqiruvlari tizimida raqamli islohotlar va sun'iy intellekt imkoniyatlari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

76 RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH

O'zbekiston Respublikasida biogaz texnologiyalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solishning ekologik jihatlari

88 ALLOBERDIYEVA DURDONA O'KTAMJON QIZI

Turistik faoliyatning atrof-muhitga ta'siri va uni huquqiy tartibga solish masalalari

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

95 QODIRALIYEV SADDAM BAXTIYORJON O'G'LI

Advokatga nisbatan qo'llanadigan intizomiy jazo chorasi sifatida litsenziyaning amal qilishini tugatishning nazariy-huquqiy tahlili

102 MUHAMMADJONOV ABRORJON AKMALJON O'G'LI

Xorijiy mamlakatlar prokuratura modellarining qiyosiy-huquqiy tahlili

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

112 **ATANIYAZOV JASURBEK KURBANBAYEVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda tergovchining protsessual mustaqilligi kafolatlarini kengaytirish
xususiyatlari

126 **MAMADALIYEV UMID YULDASHEVICH**

O'zbekiston Respublikasida ekstraditsiya institutini tartibga solinishi: holati, muammolari va
tendensiyalari

137 **FATULLAYEV SHODMONBEK MADATOVICH**

Jinoyat protsessidagi ekspertiza instituti: solishtirma-huquqiy tahlil

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

146 **RAXMANOV SHUXRAT NAIMOVICH**

Xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi manbalarining tizimi va ta'sirchanligi

154 **MO'MINOV ASILBEK HUSNIDDIN O'G'LI**

Raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishga oid BMT rezolyutsiyalari:
ahamiyati hamda samaradorligi

164 **IBODULLAYEV SAYIDKOMIL BEKPO'LAT O'G'LI**

Markaziy osiyoda ichimlik suvi tanqisligi tahdidi

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

179 **BEKBO'TAYEVA LOBAR SHOVIKAT QIZI**

Muqobil vasiylik tizimini normativ-huquqiy tartibga solish: O'zbekiston qonunchiligining tizimli tahlili

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

11 ЭШТУРДИЕВА ФАРАНГИЗ БАХОДИР КИЗИ

Имплементация нейроправ в национальное законодательство: приоритетные направления правоотворческой политики Узбекистана в эпоху искусственного интеллекта

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

23 ХУЖАНАЗАРОВ АЗИЗЖОН АНВАРОВИЧ

Анализ современных тенденций нормотворчества в эпоху цифровизации

34 АЛИЕВ ИЛХОМЖОН МУРОД УГЛИ

Искусственный интеллект и цифровая трансформация в Узбекистане: правовые основы формирования «умной нации»

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО.
МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

43 БУРХАНОВА ЛЕЙЛА МАРИУСОВНА

Совершенствование правовых основ заключения брака в контексте приоритетов 2026 года – года развития махалли и повышения благосостояния общества

**58 КОРЕГДИЕВ БОБУР УМИДЖОН УГЛИ, УМАРАЛИЕВ ИСМАИЛЖОН ИБРОХИМЖОН УГЛИ,
РАМИДДИНОВ БУРХОНИДДИН ЖАЛОЛИДДИНОВИЧ**

Правовой режим самовольно возведённых строений: проблемы и направления совершенствования законодательства Узбекистана

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

67 ХУДОЙНАЗАРОВ ДАДАХОН АВАЗ УГЛИ

Цифровые реформы и возможности искусственного интеллекта в системе судебных вызовов

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

76 РАЖАБОВ НАРИМАН ШАРИФБАЕВИЧ

Экологические аспекты правового регулирования использования биогазовых технологий в Республике Узбекистан

88 АЛЛОБЕРДИЕВА ДУРДОНА УКТАМЖОН КИЗИ

Воздействие туристической деятельности на окружающую среду и вопросы его правового регулирования

12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ
ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

95 КОДИРАЛИЕВ САДДАМ БАХТИЁРЖОН УГЛИ

Теоретико-правовой анализ прекращения действия лицензии как меры дисциплинарного взыскания, применяемой в отношении адвоката

102 МУХАММАДЖОНОВ АБРОРЖОН АКМАЛЖОН УГЛИ

Сравнительно-правовой анализ моделей прокуратуры в зарубежных странах

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

112 **АТАНИЯЗОВ ЖАСУРБЕК КУРБАНБАЕВИЧ**

Особенности расширения гарантий процессуальной независимости следователя при расследовании уголовных дел

126 **МАМАДАЛИЕВ УМИД ЮЛДАШЕВИЧ**

Правовое регулирование института экстрадиции в Республике Узбекистан: состояние, проблемы и тенденции

137 **ФАТУЛЛАЕВ ШОДМОНБЕК МАДАТОВИЧ**

Институт судебной экспертизы в уголовном процессе: сравнительно-правовой анализ

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

146 **РАХМАНОВ ШУХРАТ НАИМОВИЧ**

Система и эффективность источников дипломатического права международных организаций

154 **МУМИНОВ АСИЛБЕК ХУСНИДДИН УГЛИ**

Резолюции ООН по защите личных прав и свобод в цифровой среде: значение и эффективность

164 **ИБОДУЛЛАЕВ САИДКОМИЛ БЕКПУЛАТ УГЛИ**

Угроза дефицита питьевой воды в Центральной Азии

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

179 **БЕКБУТАЕВА ЛОБАР ШОВКАТ КИЗИ**

Нормативно-правовое регулирование альтернативной опеки: системный анализ законодательства Узбекистана

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

11 ESHTURDIEVA FARANGIZ BAKHODIR KIZI

Implementation of neuro-rights into national legislation: priorities of Uzbekistan's law-making policy in the era of artificial intelligence

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

23 KHUJANAZAROV AZIZJON ANVAROVICH

Analysis of modern trends in norm-making in the era of digitalization

34 ALIEV ILKHOMJON MUROD UGLI

Artificial intelligence and digital transformation in Uzbekistan: legal frameworks for the formation of a "smart nation"

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

43 BURKHANOVA LEYLA MARIUSOVNA

Improvement of the legal framework for marriage registration in the context of the priorities of 2026 – the year of mahalla development and the improvement of social welfare

58 KORYOGDIEV BOBUR UMIDJON UGLI, UMARALIYEV ISMOILJON IBROHIMJON UGLI, RAMIDDINOV BURKHONIDDIN JALOLIDDINOVICH

Legal regime of unauthorized constructions: problems of the legislation of Uzbekistan and directions for its improvement

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

67 KHUDOYNAROV DADAKHON AVAZ UGLI

Digital reforms and artificial intelligence opportunities in the court summons system

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

76 RAJABOV NARIMAN SHARIFBAEVICH

Environmental aspects of legal regulation of biogas technologies in the Republic of Uzbekistan

85 ALLOBERDIEVA DURDONA UKTAMJON KIZI

The impact of tourism activity on the environment and issues of its legal regulation

12.00.07 – JUDICIAL BRANCH. PROSECUTOR'S CONTROL. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT. ADVOCACY

95 QODIRALIEV SADDAM BAKHTIYORJON UGLI

Theoretical and legal analysis of the termination of a license as a disciplinary punishment measure applied to an advocate

102 MUHAMMADJONOV ABRORJON AKMALJON UGLI

Comparative legal analysis of prosecutor's models of foreign countries

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

112 **FATULLAYEV SHODMONBEK MADATOVICH**

The institute of expertise in criminal proceedings: a comparative legal analysis

126 **MAMADALIEV UMID YULDASHEVICH**

Regulation of the institute of extradition in the Republic of Uzbekistan: state, problems, and trends

137 **FATULLAYEV SHODMONBEK MADATOVICH**

The institute of expertise in criminal proceedings: a comparative legal analysis

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

146 **RAKHMANOV SHUKHRAT NAIMOVICH**

System and effectiveness of the sources of diplomatic law of international organizations

154 **MUMINOV ASILBEK HUSNIDDIN UGLI**

UN resolutions on the protection of personal rights and freedoms in the digital environment: relevance and efficiency

164 **IBODULLAEV SAYIDKOMIL BEKPULAT UGLI**

The threat of drinking water shortage in Central Asia

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

179 **BEKBUTAEVA LOBAR SHOVKAT KIZI**

Normative and legal regulation of alternative care: a system analysis of Uzbekistan's legislation

Kelib tushgan / Получено / Received: 11.02.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 02.06.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.06.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2026.10.2./ZLMU6747>

UDC: 349.6(045)(575.1)

TURISTIK FAOLIYATNING ATROF-MUHITGA TA'SIRI VA UNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Alloberdiyeva Durdona O'ktamjon qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti

tayanch doktoranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9077-3048>

e-mail: durdonallaberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola turizm sohasining atrof-muhitga ta'sirini huquqiy jihatdan tartibga solish hamda uning birlamchi va ikkilamchi ekologik oqibatlarini baholash masalalariga bag'ishlangan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, turizm jadal rivojlanishi bilan uning atrof-muhitga ta'siri ham ortib bormoqda. Bu esa turistik faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini baholash hamda uning ekologik oqibatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun yechimlarni talab etmoqda. Tadqiqotda turizm faoliyati natijasida yuzaga keladigan infratuzilmaviy, transport va rekreatsion bosimning tabiiy resurslar hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga ta'siri O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimi va xalqaro standartlar asosida tahlil qilingan. Atrof-muhit va turizm o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda tahlil va sintez, mantiqiy, tizimli hamda tarixiy yondashuv kabi umumilmiy metodlar, shuningdek, qiyosiy-huquqiy hamda formal-huquqiy metodlar qo'llangan. Ekologik turizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari, ushbu sohada davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari o'rganilib, amaldagi qonunchilikda mavjud bo'lgan tizimli muammolar aniqlangan. Ilg'or xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish asosida turizmni rivojlantirish hamda tabiiy boyliklarni muhofaza qilish o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlovchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, atrof-muhit, ekologik ta'sir, barqaror turizm, ekologik qonunchilik, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, tabiiy resurslar, ekologik muvozanat

ВОЗДЕЙСТВИЕ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ И ВОПРОСЫ ЕГО ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ

Аллобердиева Дурдона Уктамжон кизи,

базовый докторант Ташкентского

государственного юридического университета

Аннотация. Настоящая статья посвящена вопросам правового регулирования воздействия туристической деятельности на окружающую среду, а также оценке её первичных и вторичных экологических последствий. Актуальность темы обусловлена тем, что по мере стремительного развития туризма усиливается и его воздействие на окружающую среду. Это, в свою очередь, требует выработки решений по оценке воздействия туристической деятельности на окружающую среду и правовому регулированию её экологических последствий. В исследовании на основе экологического законодательства Республики Узбекистан, системы особо охраняемых природных территорий и международных стандартов проанализировано влияние инфраструктурного развития, транспортной и рекреационной нагрузки, возникающих в результате туристической деятельности, на природные ресурсы и охраняемые природные территории. При изучении взаимосвязи между окружающей средой и туризмом применялись общенаучные методы анализа и синтеза, логический, системный и исторический подходы, а также сравнительно-правовой и формально-юридический методы. Исследованы правовые основы

развития экологического туризма и приоритетные направления государственной политики в данной сфере, выявлены системные проблемы действующего законодательства. На основе сравнительного анализа передового зарубежного опыта разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию правовых механизмов, обеспечивающих оптимальный баланс между развитием туризма и охраной природных богатств.

Ключевые слова: туризм, окружающая среда, экологическое воздействие, устойчивый туризм, экологическое законодательство, особо охраняемые природные территории, природные ресурсы, экологическое равновесие

THE IMPACT OF TOURISM ACTIVITY ON THE ENVIRONMENT AND ISSUES OF ITS LEGAL REGULATION

Alloberdieva Durдона Uktamjon kizi,

Basic Doctoral Student at Tashkent State University of Law

Abstract. This article is dedicated to the legal regulation of the tourism sector's environmental impact and the assessment of its primary and secondary environmental consequences. The relevance of the topic lies in the fact that with the rapid development of tourism, its impact on the environment is also increasing. This requires solutions for assessing the impact of tourism activities on the environment and the legal regulation of its environmental consequences. The study analyzes the impact of infrastructure, transport, and recreational pressure resulting from tourism activities on natural resources and protected natural areas based on the environmental legislation of the Republic of Uzbekistan, the system of protected natural areas, and international standards. In studying the relationship between the environment and tourism, general scientific methods such as analysis and synthesis, logical, systemic, and historical approaches, as well as comparative-legal and formal-legal methods, were applied. The legal framework for the development of ecological tourism, the priorities of state policy in this area were studied, and systemic problems existing in current legislation were identified. Based on a comparative analysis of advanced foreign experience, practical proposals and recommendations have been developed to improve legal mechanisms that ensure the optimal balance between tourism development and the protection of natural resources.

Keywords: tourism, environment, environmental impact, sustainable tourism, environmental legislation, protected natural areas, natural resources, ecological balance

Kirish

Turizm iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida so'nggi yigirma yil davomida jadal sur'atlarda rivojlanib, uning global va milliy iqtisodiyotdagi o'rni hamda ahamiyati tobora ortib bormoqda. Turizmning rivojlanishi ko'plab omillar bilan belgilanadi, ularning aksariyati esa muayyan hududning o'ziga xos xususiyatlari bilan aniqlanadi. Shu ma'noda, turizmni rivojlantirish uchun muhim asos – ma'lum bir hudud ega bo'lgan imkoniyatlar bo'lib, ular asosan o'sha hududning tabiiy boyliklari bilan belgilanadi. Shuning uchun keyingi vaqtda turistik salohiyatni rivojlantirish ko'p jihatdan tabiiy diqqatga sazovor joylar hamda tabiiy imkoniyatlarning hududiy xilma-xilligi bilan bog'liqligi aniq bo'lib qoldi. Biroq turizmning jadal rivojlanishiga xos muhim jihatlardan biri – *uning atrof-muhitga ta'siridir*. Turizmning atrof-muhitga munosabati nafaqat hududdagi tabiiy qadriyatlar va foydalar bilan, balki mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi,

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida shakllangan madaniy yondashuv, tabiiy boyliklar va resurslarga bo'lgan munosabat, shuningdek, atrof-muhit va tabiiy qadriyatlarni boshqarish hamda muhofaza qilish sohasidagi yetarli normativ-huquqiy yechimlar (konstitutsiyaviy normalar, qonunlar va qonunosti hujjatlar) bilan ham belgilanadi. Shu sababli turizm atrof-muhitga, tabiiy qadriyatlarga, muhofaza etiladigan tabiiy boyliklarga va ular tarkibidagi muhofaza etiladigan hududlarga qanday va qay darajada ta'sir ko'rsatishi ko'p jihatdan jamiyatning munosabatiga bog'liq. Bu munosabat aniq belgilangan, yetarlicha qamrovli *xalqaro standartlarga moslashtirilgan huquqiy normalarda* o'z ifodasini topadi.

“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonunning 2-moddasiga ko'ra (Republic of Uzbekistan, 1992), tabiatni muhofaza qilinadigan obyektlar quyidagilardan iborat bo'lgan tabiiy resurslardir: yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi. “Muhofaza

etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun-ning 4-moddasiga ko'ra esa, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – yerning va (yoki) suv kengliklarining (akvatoriyalarning) ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalaridir" (Republic of Uzbekistan, 2004). Shularni inobatga olgan holda, maqolada tegishli tushunchalarning mazmuniy ta'rifi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida turizm, tabiiy boyliklar va muhofaza etiladigan hududlarning xususiyatlari hamda ahamiyatini o'rganishdagi ilmiy yondashuv qisqacha yoritildi. Asosiy e'tibor muhofaza etiladigan tabiiy boyliklarning eng muhim turi bo'lgan muhofaza etiladigan hududlarga, shuningdek, turizmning atrof-muhitga ta'siriga qaratildi.

Metodlar

Maqolada atrof-muhit va turizm o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda tahlil va sintez, mantiqiy, tizimli hamda tarixiy yondashuv kabi umumilmiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, qiyosiy-huquqiy va formal-huquqiy metodlar kabi maxsus huquqiy usullar ham qo'llandi.

Natijalar

Atrof-muhit insonning yashashi, dam olishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan tabiiy hamda antropogen omillar yig'indisidan iborat. Turizm jadal rivojlanishi natijasida tabiiy hududlar, milliy bog'lar va boshqa rekreatsion resurslardan foydalanish ko'lami kengayib bormoqda. Bu esa turistik faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini baholash hamda uning ekologik oqibatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish masalalarining dolzarbligini oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida (Republic of Uzbekistan, 2023) mustahkamlangan bo'lib, ushbu qoida turizm sohasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning konstitutsiyaviy asosi sifatida xizmat qiladi.

Atrof-muhitni asrash va muhofaza qilish zamonaviy jamiyat uchun muhim talabdir. Atrof-muhit *barqaror rivojlanishning* asosiy ustunlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, serbiyalik olim *Jovašević* (2017) ta'kidlaganidek: "Ekologik tamoyillar barqaror rivojlanishning asosiy prinsiplari qatoriga kiradi, ayniqsa, muayyan hudud-

ni barqaror rivojlantirishda muhim bo'lib, avvalo, manzilning tabiiy xilma-xilligini hurmat qilishni nazarda tutadi". Sand (2009) esa: "To'siqsiz iqtisodiy o'sish va rivojlanish bilan atrof-muhitni saqlash va muhofaza qilish o'rtasida optimal muvozanatni topish oson vazifa emas", – deydi.

Ekologiya sohasidagi ko'plab olimlar fikriga ko'ra, atrof-muhit va uning tarkibiy qismlarini ifloslantiruvchi manbalar tabiiy va sun'iy (antropogen) bo'lishi mumkin. Tabiiy manbalar – "...inson irodasidan tashqari biosferada sodir bo'ladigan barcha jarayonlar (vulqonlar, zilzilalar, kosmik chang). Sun'iy (antropogen) manbalar esa inson faoliyatining mahsulidir (foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash, issiqlik va atom elektr stansiyalari, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, turizm va boshqalar)" (Dordević, 2018, p. 466).

Shuni ta'kidlash kerakki, atrof-muhitga tahdid soluvchi omillar ko'rsatkichlari ijtimoiy sabablar tabiiy sabablarga qaraganda ustun ekanini va uni muhofaza qilish hamda yaxshilash tizimini tashkil etish tahdid sabablarini tushunishga bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Bu turizm va atrof-muhit o'rtasida muhim o'zaro bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, turizmning turli ekologik ta'sirlari alohida e'tiborga loyiq. Ma'lum bir hududda turistik salohiyat puxta rejalashtirilsa va atrof-muhitga ta'siri chuqur tahlil qilinsa, u tabiiy qadriyatlar, muhofaza etiladigan tabiiy boyliklar va hududlarga zararli ta'sir ko'rsatmaydi (yoki kam darajada ko'rsatadi).

Turizmning atrof-muhitga birlamchi va ikkilamchi ta'sirlarini tahlil qilishdan oldin turizmning iqtisodiy tarmoq sifatidagi muhim tushunchalari va xususiyatlarini ko'rib chiqsak. Turizmni tushunchaviy ta'riflashdagi asosiy yondashuv shundan iboratki, bu iqtisodiy tarmoq mohiyatan turist xizmatlaridan foydalanuvchilarning ixtiyoriy harakati (migratsiyasi) bo'lib, ularning motivlari, ehtiyojlari va intilishlari turizm turi yoki shaklini belgilaydi. Shunday qilib, "Turizm – turistlarning ma'lum joylarga tashrifi qancha davom etishidan qat'i nazar, shu davr davomida amalga oshiradigan barcha faoliyatlaridir" (Camilleri, 2018, p. 4).

Muhokama

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasiga (Republic of Uzbekistan, 2019) ko'ra, turizm – "jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (jo-

yidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi)", – deb ta'riflanadi.

Boshqa bir guruh olimlar esa: "Turizmni rivojlantirish jarayonida rejalashtirish asosiy vosita bo'lib, u turizmning iqtisodiy foydasini oshiradi va salbiy ta'sirlarni kamaytiradi", – deya ta'riflaydilar (Rahmaitria et al., 2020). Shuningdek, turizmni rivojlantirish sohasi, albatta, barqaror rivojlanish konsepsiyasini o'z ichiga oladi, bu esa zamonaviy rivojlanish konsepsiyasi bo'lib, "hozirgi va kelajak avlodlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik manfaatlarini uyg'unlashtiradi" (United Nations, 1987). Zamonaviy turizm shakllarining uzluksiz rivojlanishi "... atrof-muhit, mehnat va dam olish o'rtasida yangi munosabatlarni, ayniqsa, qishloq hududlarining barqarorligi nuqtayi nazaridan shakllantirishi mumkin, – deydi Lane (1994). – Bir tomondan, turizm qishloq hududlari rivojiga katta ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, kurort, mehmonxonalar va restoranlar uchun muhim xomashyo bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori shakllanishida ham turizmning ahamiyati katta". Qishloq turizmining barqaror rivojlanishi iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi bilan birga, turistik manzilning tabiiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini saqlab qolishga ham xizmat qilishi kerak.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) muhofaza etiladigan hududlarning asosiy toifalarini quyidagicha belgilagan (Dudley, 2008):

I toifa (Ia va Ib) – Qat'iy qo'riqsona / yovvoyi tabiat hududi

– Asosan ilmiy maqsadlar yoki yovvoyi tabiatni muhofaza qilish uchun boshqariladi.

II toifa – Milliy bog'

– Asosan ekotizimlarni muhofaza qilish va rekreatsiya uchun boshqariladi.

III toifa – Tabiiy yodgorlik

– Maxsus tabiiy qadriyatlarini muhofaza qilish uchun boshqariladi.

IV toifa – Turlar yoki yashash muhitini boshqarish hududi

– Boshqaruv aralashuvi orqali muhofaza qilinadi.

V toifa – Muhofaza etiladigan quruqlik yoki dengiz landshafti

– Asosan landshaftni saqlash maqsadida boshqariladi.

VI toifa – Tabiiy resurslardan barqaror foydalanish hududi

– Tabiiy ekotizimlardan barqaror foydalanish uchun boshqariladi.

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga ko'ra, muhofaza etiladigan hududlar yetti turga bo'linadi: davlat qo'riqsonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqsonalari, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar (Republic of Uzbekistan, 2004).

Turizm va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik zamonaviy turizm nazariyasining eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Turizm faoliyati, ayniqsa, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, milliy bog'lar va noyob landshaftlarga tayanagan holda rivojlanadi. Shu sababli turizm rivojlanishi bilan atrof-muhit holati o'rtasida uzviy va ikki tomonlama munosabat mavjud. Bir tomondan, turizm tabiiy hududlarni iqtisodiy jihatdan qadrlashga, ularni saqlash va muhofaza qilishga rag'bat yaratadi. Ikkinchi tomondan esa noto'g'ri rejalashtirilgan yoki nazoratsiz turizm faoliyati ekotizimlar barqarorligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Nemis turizm va ekologiya olimlari ham bu masalaga katta e'tibor qaratgan. Masalan, *H. Schemel* turizm faoliyati ekologik jihatdan to'g'ri rejalashtirilmasa, u muhofaza etiladigan hududlarning tabiiy tizimlariga zarar yetkazishini ta'kidlaydi (Schemel et al., 1992). Uning fikricha, turizmni rivojlantirish tabiatni muhofaza qilish maqsadlari bilan uyg'un holda olib borilishi kerak. *J. Schmude* esa turizm hududiy rivojlanish vositasi bo'lishi mumkinligini, biroq u rejalashtirilmagan holatda ekologik muvozanatni buzishi va tabiiy resurslarning yemirilishiga olib kelishini qayd etadi (Schmude & Namberger, 2010).

Turizmning atrof-muhitga ta'siri odatda ikki asosiy turga bo'linadi: birlamchi (to'g'ridan to'g'ri) va ikkilamchi (bilvosita) ta'sirlar. Birlamchi ta'sirlar turizm infratuzilmasi qurilishi, transport harakati, mehmonxona va dam olish maskanlari faoliyati natijasida yuzaga keladi. Ikkilamchi ta'sirlar esa tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish, chiqindilar hajmining ortishi, biologik xilma-

xillikning kamayishi kabi jarayonlar orqali namoyon bo'ladi.

Butunjahon turizm tashkiloti va BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) ma'lumotlariga ko'ra, turizmning ekologik ta'siri quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi (World Tourism Organization, 2005; World Tourism Organization, & United Nations Development Programme, 2017):

– tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish;

- atmosfera, suv va tuproqning ifloslanishi;
- biologik xilma-xillikning kamayishi;
- landshaftlarning buzilishi;
- chiqindilar va kanalizatsiya muammolari.

Butunjahon turizm tashkiloti hisobotlarida ta'kidlanishicha, turizm infratuzilmasining nazoratsiz kengayishi ko'pincha qirg'oq hududlari, tog'li landshaftlar va cho'l hududlarining ekologik muvozanatini buzadi (World Tourism Organization, 2005).

Ekolog olim R. Buckley (2012) turizmni "tabiiy hududlar uchun ikki tomonlama jarayon" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, turizm bir tomondan tabiiy hududlarni iqtisodiy qiymatga ega resursga aylantirsa, ikkinchi tomondan, noto'g'ri boshqarilganda ularni degradatsiyaga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, Metison va Uoll turizmning ekologik ta'sirini resurslarga bosim, chiqindilar va ifloslanish, ekotizimlarning buzilishi kabi uch asosiy guruhga ajratadi (Mathieson & Wall, 2003). Ularning ta'kidlashicha, turizmning salbiy ta'siri asosan rejalashtirish yetishmasligi, tashrif buyuruvchilar sonining nazoratsiz o'sishi va huquqiy mexanizmlarning sustligidandir.

Turizmning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish ko'p jihatdan davlatning ekologik siyosati va huquqiy mexanizmlariga bog'liq. Bizningcha, huquqiy tartibga solish quyidagi: ekologik standartlarni belgilash, muhofaza etiladigan hududlarda faoliyatni cheklash, ekologik ekspertiza va monitoring, turizm infratuzilmasini rejalashtirish, tabiiy resurslardan foydalanish tartibini belgilash kabi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Huquqshunos olim P. Sands (2009) *ekologiya huquqini "inson faoliyatining tabiatga ta'sirini cheklash va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi normalar tizimi"* deb ta'riflaydi. Uning fikricha, turizm sohasidagi huquqiy tartibga solish barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asoslanishi zarur.

Hunter va Green esa turizmni huquqiy tartibga solishda iqtisodiy manfaatlarni, ekologik muhofazani ustuvor qo'yuvchi va barqaror muvozanatni ta'minlovchi integratsiyalashgan yondashuvni ko'rsatadi (Hunter & Green, 1995).

Turizm va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari xalqaro huquqiy hujjatlarda ham keng yoritilgan. Masalan, 1992-yilgi Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi (United Nations, 1992) barqaror rivojlanish tamoyillarini belgilab, iqtisodiy faoliyat atrof-muhit muhofazasi bilan uyg'un holda olib borilishi lozimligini ta'kidlaydi. Butunjahon turizm etik kodeksi esa *turizm faoliyatida ekologik mas'uliyatni* asosiy prinsip sifatida belgilaydi (World Tourism Organization, 2005). Ushbu kodeksda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash, mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish kabi tamoyillar alohida ko'rsatib o'tilgan.

Ekologiya sohasidagi taniqli olim Herman Deyli barqaror rivojlanishni "tabiiy kapitalni saqlab qolgan holda iqtisodiy faoliyat yuritish" deb izohlaydi (Daly, 2000). Uning fikricha, turizm aynan shu model asosida rivojlantirilishi kerak. Demak, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda turizmni rivojlantirish alohida huquqiy yondashuvni talab qiladi. Chunki bunday hududlarning asosiy vazifasi – tabiiy resurslarni saqlashdir.

Xulosa

O'rganilgan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, turizmning atrof-muhitga ta'siri asosan resurslardan ortiqcha foydalanish, chiqindilar va ifloslanishning ortishi, biologik xilma-xillikning kamayishi hamda landshaftlarning o'zgarishi kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Bu jarayonlar ko'pincha turizm infratuzilmasining nazoratsiz kengayishi, tashrif buyuruvchilar sonining rejalashtirilmagan o'sishi va huquqiy mexanizmlarning yetarli darajada ishlamasligi bilan bog'liq. Shuning uchun turizm faoliyatini samarali boshqarish va ekologik salbiy ta'sirlarni kamaytirish davlatning aniq huquqiy siyosati va tartibga solish tizimiga bog'liqdir.

Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi va Butunjahon turizm etik kodeksi turizmni barqaror rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilab, iqtisodiy faoliyatni atrof-muhitni muhofaza qilish talablari bilan uyg'un holda olib borish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu hujjatlar turizm sohasida ekologik mas'uliyat,

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash va mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish kabi prinsiplarni mustahkamlaydi. Bu tamoyillar milliy qonunchilikni takomillashtirish va turizmni ekologik jihatdan tartibga solishda muhim nazariy va huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi ekologik va turizmga oid qonunchiligi ham turizmni barqaror rivojlantirish, muhofaza etiladigan hududlarni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan. Biroq turizm sohasining jadal rivojlanishi sharoitida huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, ekologik ekspertiza va monitoring tizimlarini ku-

chaytirish, muhofaza etiladigan hududlarda turizm faoliyatini aniq tartibga solish zarurati saqlanib qolmoqda.

Demak, turizmning atrof-muhitga ta'sirini huquqiy jihatdan tartibga solish barqaror rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Turizmni rivojlantirish jarayonida iqtisodiy manfaatlar va ekologik muhofaza o'rtasida muvozanatni ta'minlash, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish hamda muhofaza etiladigan hududlarda turizmni ilmiy asoslangan boshqaruv tizimiga o'tkazish zarur. Faqat shundagina turizm tabiiy resurslarni saqlagan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqaror omiliga aylanishi mumkin.

REFERENCES

- Alloberdiyeva, D. O. Q. (2025). Tabiiy kurort hududlarning huquqiy maqomi [Legal status of natural resort areas]. *Priority Reforms in Theoretical and Applied Sciences and Innovative Directions of Modern Education*, 2(1), 189–192. <https://innovativepublication.uz/index.php/NUZY/article/view/2374>
- Buckley, R. (2012). Sustainable tourism: Research and reality. *Annals of Tourism Research*, 39(2), 528–546. <https://doi.org/10.1016/j.annals.2012.02.003>
- Camilleri, M. A. (2018). *Travel marketing, tourism economics and the airline product*. Springer International Publishing. <https://doi.org/10.1007/978-3-319-49849-2>
- Daly, H. E. (2000). *Beyond growth: The economics of sustainable development*. Beacon Press.
- Dordević, M. (2018). Zagađivanje i zaštita vazduha, vode i zemljišta [Pollution and protection of air, water and soil]. *Important Case*, 70(4), 465–474. <https://doi.org/10.5937/vojdelo1807465D>
- Dudley, N. (Ed.). (2008). *Guidelines for applying protected area management categories*. IUCN. <https://portals.iucn.org/library/node/9243>
- Jovašević, D. (2017). Krivična dela terorizma – evropski standardi i pravo Republike Srbije [Criminal acts of terrorism – European standards and the law of the Republic of Serbia]. *Important Case*, 69(1), 315–328. <https://doi.org/10.5937/vojdelo1701315J>
- Hunter, C., & Green, H. (1995). *Tourism and the environment: A sustainable relationship?* Van Nostrand Reinhold.
- Koch, H.-J. (Ed.). (2018). *Handbuch des Umweltrechts* (5th ed.). Beck-Online. https://beck-online.beck.de/?vpath=bibdata%2Fkomm%2FKochHoReHdbUmweltR_5%2Fcont%2FKochHoReHdbUmweltR.htm
- Lane, B. (1994). What is rural tourism? *Journal of Sustainable Tourism*, 2(1–2), 7–21. <https://doi.org/10.1080/09669589409510680>
- Mathieson, A., & Wall, G. (2003). *Tourism: Economic, physical and social impacts*. Pearson Education.
- Rahmafritia, F., Pearce, P. L., Oktadiana, H., & Putro, H. P. H. (2020). Tourism planning and planning theory: Historical roots and contemporary alignment. *Tourism Management Perspectives*, 35, Article 100703. <https://doi.org/10.1016/j.tmp.2020.100703>
- Republic of Uzbekistan. (1992). *Law of the Republic of Uzbekistan "On Nature Protection"* (LRU № 754–XII). lex.uz/docs/107115
- Republic of Uzbekistan. (2004). *Law of the Republic of Uzbekistan "On Protected Natural Territories"* (LRU № 710–II). <https://lex.uz/uz/docs/-415135>
- Republic of Uzbekistan. (2019). *Law of the Republic of Uzbekistan "On Tourism"* (LRU № 549). <https://lex.uz/docs/-4428097>

- Republic of Uzbekistan. (2023). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. <https://lex.uz/docs/-6445145>
- Romeril, M. (1997). Book review: Tourism and the environment. A sustainable relationship? *Progress in Tourism and Hospitality Research*, 3(3), 280. [https://doi.org/10.1002/\(SICI\)1099-1603\(199709\)3:3%3C280::AID-PTH65%3E3.0.CO;2-K](https://doi.org/10.1002/(SICI)1099-1603(199709)3:3%3C280::AID-PTH65%3E3.0.CO;2-K)
- Sands, P. (2009). *Principles of international environmental law* (2nd ed.). Cambridge University Press.
- Schemel, H.-J., Erbguth, W., & Reichholf, J. H. (1992). *Handbuch Sport und Umwelt: Ziele, Analysen, Bewertungen, Lösungsansätze, Rechtsfragen [Handbook Sport and Environment: Goals, analyses, evaluations, solution approaches, legal issues]*. Meyer & Meyer.
- Schmude, J., & Namberger, P. (2010). *Tourismusgeographie*. WBG.
- United Nations Conference on Environment and Development. (2010). *Agenda 21: Programme of action for sustainable development; Rio declaration on environment and development; Statement of forest principles*. United Nations Department of Public Information.
- United Nations. (1987). Report of the World Commission on Environment and Development: Our Common Future. <https://www.are.admin.ch/en/1987-brundtland-report>
- United Nations. (1992). *Rio Declaration on Environment and Development*. Report of the United Nations Conference on Environment and Development, A/CONF.151/26 (Vol. I). <https://www.un.org/en/conferences/environment/rio1992>
- World Tourism Organization, & United Nations Development Programme. (2017). *Tourism and the sustainable development goals – Journey to 2030*. World Tourism Organization (UNWTO). <https://doi.org/10.18111/9789284419401>
- World Tourism Organization. (2005). *Making tourism more sustainable: A guide for policy makers*. UNWTO. <https://doi.org/10.18111/9789284408214>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2026-yil 2-son

VOLUME 10 / ISSUE 2 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2).